



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 106 sahifa,
22-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Pedagog kadrlar tayyorlashda microteaching metodining tashkiliy asoslari va uni samarali qo'llash mexanizmlari.....	10
Abdiqayumova Malika	
Ijtimoiy pedagogik faoliyatning bolalarning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni	14
Abdullayeva Yulduz Qurbon qizi, Xudayberdiyeva Zilola Azamat qizi	
Talabalarning og'zaki nutqini interfaol usullar yordamida rivojlantirish	18
Atamirzayeva Ezoza	
English Language Barriers Among Rural Ecotourism Guides in Uzbekistan	22
Aminova Asilaxon Sobir qizi	
Совершенствование методов обучения студентов эффективному управлению временем на основе тайм-менеджмента.....	25
Уразова М. Б., Абатова У. Б.	
Zamonaviy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni va samaradorligi	30
Xurramova Dilso'z Baxtiyor qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin asosida ta'limni tashkil etishning pedagogik ahamiyati.....	33
Gaipova Akjunis Qayratovna	
Bo'lajak o'qituvchilarda o'zini o'zi tashkil etish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	37
Alimov Bekzod Nematovich	
O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanish tadbirlarini maktab darajasida boshqarishning integratsiyalashgan yondashuvi	41
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar	48
Xurramova Sanobar Mahmatmurod qizi	
Pedagogical Integration as a Factor of Humanization in Professional Teacher Education	53
Yusupova Mukhabbat Anatolyevna	
Yoshlarda iqtisodiy tafakkur shakllanishida etnik muhitning ta'siri.....	58
Erkinova Sevara Najmiddin qiz	
Innovative Approaches to Teaching English in Higher Education: a Methodological Study	61
Gulsara Khakimova	
Bo'lajak pedagoglarda kognitiv faollikni rivojlantirishda neyropedagogika asoslari.....	63
Hikmatova Jamila Fatox qizi	
Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish texnologiyalari.....	68
I. S. Xamrayeva, Nuriddinova Muxayyo Ishxodjayevna	
Badiiy matn asosida nutqiy ko'nikmalar va ijodiy tafakkur integratsiyasini ta'minlash metodikasi	73
Jo'rayeva Sevinch Abdialim qizi	
Etnopedagogik muhitda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish.....	77
Murodova Farangis G'anisherovna	
Malaka oshirish jarayonida muammoga asoslangan o'qitish vositasida MTT tarbiyachilarining 4K ko'nikmasini rivojlantirish texnologiyasi	81
Ravshanova Xafiza Komilovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi vositalaridan (ertak, maqol, qo'shiq, afsona, doston va boshqalar) foydalanishning nazariy asoslari, xalqaro va milliy tajribasi	85
Tog'ayeva Munisa Muxammadiyevna	
Akademik ko'nikmalarni rivojlantirish asosida kelajakdagi o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish	89
Tursunova Elmira Ulug'bekovna, Rayimova Mushtariy Raup qizi	
Sensor integratsiya autizm spektori buzilishi bo'lgan bolalarning xulq-atvor va hissiy holatiga ta'siri.....	91
Xamidova Muyassar Polsaidovna, Abdullayeva Muslima Shovkat qizi	



Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	96
Xoshimova Dilobar Kuchkarovna, Nortosheva Dildora Orif qizi, Avazmurodova Mehribon Sharif qizi	
Инновационная методика нравственного воспитания в начальных классах: подход межпредметной интеграции	101
Улугмурадова Шохсанам	

ZAMONAVIY TA'LIMDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA SAMARADORLIGI

Xurramova Dilso'z Baxtiyor qizi

TISU Pedagogika va texnologik ta'lim kafedrası v.b. dotsenti (PhD)

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarning ahamiyati, ularning turlari, o'quv jarayonidagi o'rnini hamda samaradorligi yoritiladi. Innovatsion yondashuvlarning ta'lim sifatini oshirishdagi roli, o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy etishda yuzaga keladigan muammolar hamda ularni bartaraf etishning samarali yo'llari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, ta'lim samaradorligi, AKT, masofaviy ta'lim, modulli o'qitish, zamonaviy ta'lim, metodika.

Abstract: The importance of innovative pedagogical technologies in the modern education system, their types, role, and effectiveness in the learning process are examined. The impact of innovative approaches on improving the quality of education and developing students' independent and critical thinking skills is analyzed. In addition, the challenges arising from the implementation of innovative technologies and effective ways to overcome them are substantiated.

Key words: innovation, pedagogical technology, interactive methods, educational effectiveness, ICT, distance learning, modular learning, modern education, methodology.

Аннотация: Рассматриваются значение инновационных педагогических технологий в современной системе образования, их виды, роль и эффективность в учебном процессе. Анализируется влияние инновационных подходов на повышение качества образования и развитие самостоятельного и критического мышления обучающихся. Также обосновываются проблемы, возникающие при внедрении инновационных технологий, и предлагаются пути их эффективного решения.

Ключевые слова: инновации, педагогические технологии, интерактивные методы, эффективность образования, ИКТ, дистанционное обучение, модульное обучение, современное образование, методика.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim sohasida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. An'anaviy o'qitish usullari o'rnini asta-sekin innovatsion pedagogik texnologiyalar egallamoqda.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar o'quv jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini oshirish hamda bilimlarni chuqur o'zlashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli ushbu maqolada zamonaviy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rnini, afzalliklari va samaradorligi tahlil qilinadi.

Hozirgi davrda ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Fan va texnika taraqqiyoti, axborot oqimining keskin ortib borishi ta'lim jarayonini yangicha tashkil etishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

An'anaviy ta'lim tizimida o'qituvchi asosiy bilim beruvchi subyekt sifatida faoliyat yuritgan bo'lsa, zamonaviy ta'limda o'quvchi markaziy o'ringa chiqmoqda. Bu esa o'qitish metodlari va vositalarini tubdan o'zgartirishni talab qiladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib shakllangan bo'lib, ular ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlardan keng foydalanish o'quvchilarning bilim darajasi va raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi. Shu sababli mazkur mavzuni chuqur o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik tafakkur tarixida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish masalasi doimo muhim o'rin egallagan. Abdulla Avloniy 1992-yilda nashr etilgan "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida ta'lim-tarbiyada shaxs kamoloti, axloqiy yetuklik va ongli fikrlashni shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi. Muallifning qarashlari bugungi innovatsion yondashuvlar bilan uyg'un bo'lib, unda o'quvchining faolligi va mustaqil fikrlashi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

R. Mavlonova 2010-yilda pedagogika nazariyasi va tarixiga oid tadqiqotlarida ta'lim jarayonini tizimli tashkil etish, zamonaviy metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish muhimligini asoslab beradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar masalasi J. Yo'ldoshev 2004-yilda e'lon qilgan ishlarida keng yoritilgan bo'lib, unda innovatsion metodlar orqali ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatib beriladi.

N. Azizxo'jayeva 2006-yildagi tadqiqotlarida pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib berib, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi innovatsion yondashuvlarni samarali joriy etishda asosiy omil ekanini ta'kidlaydi. Ushbu ilmiy qarashlar zamonaviy ta'lim tizimida interfaol metodlar va texnologiyalardan foydalanishning nazariy asosini tashkil etadi.

So'nggi yillarda innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish masalalari D.B. Xurramova 2023-yilda olib borgan ilmiy tadqiqotlarda chuqur tahlil qilingan. Muallif interfaol texnologiyalar asosida talabalarni kasbiy tayyorlash jarayonini takomillashtirish, ularning mustaqil fikrlash va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini asoslab beradi.

Shuningdek, "Herald pedagogiki. Nauka i praktika" jurnalida chop etilgan maqolasida innovatsion texnologiyalar orqali ta'lim samaradorligini oshirishning pedagogik jihatlari ochib berilgan. Ushbu tadqiqotlar zamonaviy ta'limda innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini yanada mustahkamlab, ularning amaliy qo'llanilish istiqbolini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot doirasida ma'lumotlar bir necha manbalar asosida yig'ildi. Avvalo, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha ilmiy adabiyotlar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar va amaldagi me'yoriy hujjatlar tahlil qilindi. Shuningdek, umumta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar hamda talabalardan anketa-so'rovnoma va yarim tuzilgan intervyular orqali birlamchi ma'lumotlar olindi. Kuzatuv usuli yordamida dars jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish holati o'rganildi va amaliy misollar yig'ildi.

Olingan ma'lumotlar sifat va miqdoriy jihatdan tahlil qilindi: so'rovnoma natijalari statistik usullar asosida umumlashtirildi, intervyu va kuzatuv natijalari esa mazmuniy tahlil orqali qayta ishlanib, asosiy tendensiyalar ajratib olindi. Taqqoslash va umumlashtirish usullari yordamida an'anaviy va innovatsion yondashuvlar samaradorligi o'zaro solishtirildi. Natijalar asosida innovatsion pedagogik texnologiyalarning ta'lim samaradorligiga ta'siri aniqlanib, ularning amaliy qo'llanilish darajasi va samaradorligi yuzasidan xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Innovatsiya" tushunchasi yangilik kiritish, yangicha yondashuvni anglatadi. Pedagogikada esa bu ta'lim jarayoniga yangi metod, usul va vositalarni tatbiq etish orqali sifatni oshirishni bildiradi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar o'quvchiga yo'naltirilganlik, interfaollik, samaradorlik, natijadorlikni oldindan rejalashtirish hamda axborot texnologiyalaridan foydalanish kabi xususiyatlarga ega bo'lib, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi hamda ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va mazmunli qiladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar – bu ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvlar, metodlar va vositalarni joriy etish orqali uning samaradorligini oshirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Mazkur texnologiyalar pedagogika, psixologiya va axborot texnologiyalari integratsiyasi asosida shakllanadi. Pedagogik texnologiya o'qitish jarayonini oldindan loyihalash, uni amalga oshirish va natijani baholash bosqichlarini qamrab oladi, innovatsion texnologiyalar esa ushbu jarayonni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Ularning asosida shaxsga yo'naltirilganlik, tizimlilik va izchillik, faoliyatga asoslanganlik, natijaga yo'naltirilganlik hamda refleksiya va tahlil tamoyillari yotadi. Bu tamoyillar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan ehtiyojini oshiradi va ularni faol subyektga aylantiradi.

Zamonaviy ta'lim tizimida qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyalar xilma-xil bo'lib, ularning mazmuni va qo'llanilish sohasi turlicha. Interfaol metodlar o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etishga qaratilgan bo'lib, ular o'zaro muloqot va hamkorlikka asoslanadi. Ushbu metodlar yordamida o'quvchilar o'z fikrini erkin bayon etadi, muammolarni birgalikda hal qiladi hamda tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari esa ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishda muhim vosita hisoblanib, kompyuter, internet va multimedia imkoniyatlari orqali bilimlarni vizual va interaktiv tarzda o'zlashtirishni ta'minlaydi. Bu

vositalar katta hajmdagi axborotni tezkor yetkazish, individual o'rganish imkoniyatini yaratish va masofaviy ta'limni qo'llab-quvvatlash kabi afzalliklarga ega. Masofaviy ta'lim texnologiyalari, ayniqsa, global pandemiya davrida o'z ahamiyatini yaqqol namoyon etib, ta'limni istalgan joyda va qulay vaqtda olish imkonini yaratdi hamda mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirdi. Modulli o'qitish texnologiyasi esa o'quv materialini kichik qismlarga ajratish orqali uni bosqichma-bosqich o'zlashtirishga imkon beradi, bu esa bilimlarni tizimli egallash va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ular o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi, mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi. Bunday texnologiyalar o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, uning motivatsiyasini oshiradi va individual imkoniyatlarini hisobga olishga xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy elektron vositalar orqali tezkor baholash imkoniyati ham yaratiladi.

Innovatsion texnologiyalarni qo'llash natijasida bilimlarni o'zlashtirish darajasi ortadi, o'quvchilarning ijodiy yondashuvi rivojlanadi va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalari shakllanadi. Interfaol metodlar mavzuni muhokama qilish orqali chuqur anglashni ta'minlasa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari murakkab tushunchalarni sodda va tushunarli shaklda yetkazishga yordam beradi.

Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarni joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud bo'lib, ular texnik bazaning yetarli emasligi, internet tezligi va sifati bilan bog'liq kamchiliklar, o'qituvchilarning raqamli ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi hamda metodik qo'llanmalar yetishmasligi bilan bog'liq. Ayrim hollarda o'quvchilarning passivligi ham ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun o'qituvchilarning malakasini oshirish, ta'lim muassasalarini zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlash, yuqori tezlikdagi internet imkoniyatlarini kengaytirish, innovatsion metodlar bo'yicha qo'llanmalar yaratish hamda o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratilgan motivatsion yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, davlat va ta'lim muassasalari hamkorligida innovatsion loyihalarni amalga oshirish ta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, innovatsion pedagogik texnologiyalar zamonaviy ta'limning ajralmas qismi hisoblanadi. Ular ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Kelajakda ta'lim tizimini yanada rivojlantirish uchun innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish zarur. Bu esa jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishga, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo'yicha metodik qo'llanma. – Toshkent, 2020.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
4. D.B. Xurramova. Herald pedagogiki. Nauka i praktika. Vol. 3, No. 6, 2023-11-21. Pedagogical aspects of improving the professional training of students on the basis of interactive technologies.
5. D.B. Xurramova. "Ta'lim, fan va innovatsiya" ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. ISSN 2181-8274. – Toshkent, 2023. №6. Talabalarni interfaol texnologiyalar asosida o'qitishga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish muammosining o'rganilganlik darajasi.
6. R. Mavlonova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
7. N. Azizxo'jayeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2006.
8. J. Yo'ldoshev. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.